

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“ MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO’YICHA

**T U S H I N T I R I S H   X A T I**

**Diplom loyihasining mavzusi:** “Konveroll universal” MCHJ sharoitlari uchun “1140302 Qopqoq” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta’minot vositalari konstruktsiyalarini ishlab chiqish.

**Yo’nalish:** Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jixozlash va avtomatlashtirish

|                                    |               |
|------------------------------------|---------------|
| 4-kurs 114-14 guruh talabasi:      | A.Mansurov    |
| Kafedra mudiri:                    | X.Akbarov     |
| Rahbar:                            | D.Ergashev    |
| Maslaxatchilar:                    |               |
| Texnologik qismi:                  | D.Ergashev    |
| Konstruktorlik qismi:              | D.Ergashev    |
| Xayot faoliyati xavfsizligi qismi: | N.Zulunov     |
| Iqtisodiy qismi:                   | Z.Teshaboyeva |

Andijon – 2018 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO'YICHA

**T O P S H I R I Q**  
**Mansurov Azizbek Dilmurod o'g'li**

**1. Diplom loyihasining mavzusi:** “Konveroll universal” MCHJ sharoitlari uchun “1140302 Qopqoq” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta'minot vositalari konstruktsiyalarini ishlab chiqish.

Institut bo'yicha 2018 yil 17-apreldagi 88-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

**2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, qarorlari, farmoyishlari, VM qarorlari, ilmiy-texnik adabiyotlar, internet ma'lumotlari, detal ishchi chizmasi, ishlab chiqarish xajmi.

**3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:**

**1) Kirish.** O'zbekistonning rivojlanishda mashinasozlik sanoatining roli ahamiyati, qaror va farmonlar, diplom loyihasining maqsad va vazifalari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

**2) Umumiy qism.** Detalning xizmat vazifasi, ishlab chiqarish turini aniqlash va boshqalar.

**3) Texnologik qism.** Zagatovka olish turini tanlash, texnologik jarayon marshuritini ishlab chiqish, detal konstruktsiyasini texnologiklikka taxlili, zagatovkaga ishlov berishda qo'yim xisobi, kesish maromlarini xisoblash, vaqt me'yorini xisoblash.

**4) Konstruktorlik qismi.** Dastgox moslamasi, kesuvchi asbob va o'lchov vositalarini bayon va xisoblari.

**5) Xayot faoliyati xavfsizligi qismi.** Loyihalanayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining ta'rifi, ishlab chiqarish joyida yoritish tizimini tanlash, ventilatsiya tizimini tanlash, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, aloqa yong'in signalizatsiya tizimi va boshqalar, mehnat xavfsizligi bo'yicha barcha talablar va qonun qoidalar.

**6) Iqtisodiy qism.** Texnologik jarayonning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**7) Xulosa.** Bajarilgan diplom loyihasi bo'yicha xulosalar va takliflar yoritiladi.

**8) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.** Bajarilgan diplom loyihasi bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

**9) Ilovalar.** Spetsifikatsiyalar va texnologik jarayon xujjatlari.

**4. Diplom loyihasining chizmalari ro'yhati:**

1. Detal chizmasi
2. Zagotovka chizmasi.
3. Texnologik sozlash kartalari.
4. Moslama chizmasi.
5. Kesuvchi asbob chizmasi.
6. O'lchov vositasi yoki uchastka plani.

**5. Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:**

| № | Diplom loyihasining qismlari      | Boshlanish muddati | Tugallanish muddati | Imzo | Maslahatchining familiyasi va ismi |
|---|-----------------------------------|--------------------|---------------------|------|------------------------------------|
| 1 | Texnologik qism                   | 11.01.18           | 14.04.18            |      | D.Ergashev                         |
| 2 | Konstruktorlik qismi              | 14.04.18           | 10.05.18            |      | D.Ergashev                         |
| 3 | Xayot faoliyati xavfsizligi qismi | 10.05.18           | 21.05.18            |      | N.Zulunov                          |
| 4 | Iqtisodiy qism                    | 10.05.18           | 21.05.18            |      | Z.Teshaboyeva                      |

**6. Topshiriq berilgan sana :****11.01.2018****Rahbar:**

D.Ergashev

---

(imzo)**Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi**

A.Mansurov

---

(imzo)**Kafedra mudiri**

X.Akbarov

---

(imzo)

## **Mundarija**

|                                                                                |    |
|--------------------------------------------------------------------------------|----|
| KIRISH .....                                                                   | 5  |
| 1. UMUMIY QISM .....                                                           | 7  |
| 1.1. Detalni xizmat vazifasi .....                                             | 7  |
| 1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash .....                                    | 7  |
| 1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari .... | 9  |
| 2. TEXNOLOGIK QISM .....                                                       | 11 |
| 2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash .....              | 11 |
| 2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish .....                       | 12 |
| 2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi .....                           | 13 |
| 2.4. Kesish maromlarini hisoblash .....                                        | 15 |
| 2.5. Vaqt me'yorini xisobi .....                                               | 31 |
| 3. KONSTRUKTORLIK QISM .....                                                   | 35 |
| 3.1. Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi .....                                | 35 |
| 3.2. Nazorat moslamasini bayoni va xisobi .....                                | 38 |
| 3.3. Kesuvchi asbobni bayoni va hisobi .....                                   | 38 |
| 4. XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI .....                                           | 42 |
| 5. IQTISODIY QISM .....                                                        | 49 |
| XULOSA .....                                                                   | 56 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....                                       | 57 |
| ILOVALAR .....                                                                 | 58 |

## **Kirish**

2018-yil O'zbekiston Respublikasida "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili " deb e'lon qilingani munosabati bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi qabul qilindi. Shu yildan mashinasozlik sanoatini rivojlantirish bo'yicha yangi qarorlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Davlatimizning dunyodagi sanoati rivojlangan mamlakatlaridan o'z o'rnini egalallashda yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ko'rsatilgan asosiy masaladir. Bunday mutaxassislar zamonaviy mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, loyihalashni, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan foydalanishni, raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar asosida yuqori unumdorlikdagi moslanuvchan ishlab chiqarish modullarni va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama bilishlari va ulardan foydalana olishlari kerak. Shuning uchun bitiruv malakaviy ishi zamonaviy mashina va jihozlarini ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or texnika va yuqori texnologiyalardan foydalangan holda bajarilishi kerak.

Jamiyatning moddiy texnika bazasini yaratuvchi va mamlakatimizning texnik taraqqiyotini rivojlanishini belgilovchi soha mashinasozlikdir. U sanoatning turli tarmoqlarini yangi texnika, ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydi. Shu sababli mashinasozlik ishlab chiqarishning barcha sohalarini rivojlanishiga katta tahsir ko'rsatuvchi sanoatning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Mashinasozlikning asosini mashinalarni loyixalash va ishlab chiqarish tashkil etadi. Mashinalar o'z navbatida jamiyat turmush farovonligini ko'rsatadi. Ular ish unumdorligini, mehnat samaradorligini va mahsulot sifatini oshiradilar. Mustaqillikning boshlang'ich davridayoq, mamlakatimizda mashinasozlikni

rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratildi. Ko'plab qo'shma korxonalari mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikamiz mashinasozligi oldida yaqin yillarda mo'ljallagan ulkan va ma'suliyatli vazifalar turibdi. Bular jumladan xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuqori darajasida ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan energiya va metalni iqtisod qilish texnologiyalarini keng qo'llash, mashinasozlik mahsulotlarini texnik darajasini va sifatini oshirish, zararli va og'ir qo'l mehnatini yengillashtiruvchi mashina va jixozlarni chiqarish, materiallarga ishlov berish dastgohlari sifatini yaxshilash.

## 1.Umumiy qism.

### 1.1 Detalni xizmat vazifasi.

Qopqoqsimon detallar mashina va mexanizmlarda juda keng qo'llaniladi. Qopqoqlar metall kesish dastgohlarining, avtomobillar va traktorlarning tezliklar qutisi, ichki yonuv dvigatellari, kompressorlar va nasoslarning bloklar tsilindrlari, reduktorlar qutilari hamda shunga o'xshash boshqa mexanizmlarda podshipnik joylashgan teshiklarni berkitish, ayrim hollarda podshipniklarni ushlab turish uchun xizmat qiladi. Menga berilgan "Qopqoq" detali materiyali kulrang cho'yan CЧ 15 GOST 1412-85, og'irligi  $m=1526g$ .

Detalning asosiy yuzalari D va E yuzalar bo'lib, yuza g'adir-budirligi Rz20 mkm, o'lcham aniqligi bo'yicha 7 kv dadir. Ava B yuzalar g'adir budurligi Rz80 mkm.

CЧ 15 ning kimyoviy tarkibi (GOST 1412-85),

2.1-jadval

| Markasi | C       | Si    | M <sub>n</sub> |
|---------|---------|-------|----------------|
| CЧ 15   | 3.5÷3.7 | 2÷2.4 | 0.5÷0.8        |

CЧ 15 ning mexanik xossalari

2,2-jadval

| Po'lat<br>markasi | Mexanik xossalari                  |                                   |                |            |                               |     |
|-------------------|------------------------------------|-----------------------------------|----------------|------------|-------------------------------|-----|
|                   | $\sigma_g$ ,<br>kg/mm <sup>2</sup> | $G_{ots}$ ,<br>kg/mm <sup>2</sup> | $\delta_s$ , % | $\Psi$ , % | $d_n$ ,<br>kg/mm <sup>2</sup> | HB  |
| CЧ 15             | 64–76                              | 150                               | 17             |            | 8                             | 185 |

### 1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash.

Har bir mashinasozlik korxonasi bir yil davomida ishlab chiqarishga kerak bo'lgan mahsulot va zaxira qismlarining ma'lumotiga ega. Bu ma'lumot ishlab chiqarish dasturi deb ataladi va unda ma'lumotni turi, soni, o'lchami va materiali to'g'risida ham etarlicha axborot bor. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish

dasturiga asosanssexlar bo'yicha ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Har bir mahsulot umumiy ko'rinishining chizmasi, detallarning ishchi chizmasi, yig'uv chizma, spetsifikatsiyalar va texnik talablar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarish dasturining xajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asosoan shartli ravishda uchta ishlab chiqarish turi mavjud: donali, seriyali, yalpi. Har bir ishlab chiqarish turi o'ziga xos tashkiliy shaklga ega. Shuni aytish kerakki, bitta korxonada xar-hil ishlab chiqarish turlari bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish turi va unga to'g'ri keladigan ishni tashkil qilish shakli texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini aniqlaydi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish turini aniqlash detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonni loyixalashni boshlang'ich asosiy bosqichidir. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og'irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi.

Bunda  $N=10000$  dona va  $m=1526$  g bo'lganda ([5],2j,18b) ishlab chiqarish turi o'rta seriyali deb aytishimiz mumkin.

Berilgan yillik dasturga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$t_b = \frac{F_g \cdot 60}{N} = \frac{4029 \cdot 60}{10000} = 24 \frac{\partial \text{ак}}{\partial \text{она}}$$

bu erda:  $F_g = 4029 \text{ coam}$  – dastgohlarni bir yillik haqiqiy ishlash vaqti fondi;  $N=10000$  dona – yillik ishlab chiqarish dasturi.

Bo'limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqarish turida detallarni partiyalarga bo'lib ishlov berish sababli partiyadagi detallar sonini hisoblab topish talab qilinadi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{10000 \cdot 3}{254} = 118 \text{ dona}$$



bu erda:  $a=3,6,12,24$  kun – partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri;  
 $F=254$  kun – bir yildagi ishchi kunlar soni.

### **1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari**

Ishlab chiqarish ob'ekti bo'lgan mahsulot konstruksiyasini texnologikligi quyidagi nuqtai nazarlar bo'yicha taxlil qilinadi: qo'llaniladigan materialning ko'rinishi va turi, xom–ashyoni ko'rinishi va tayyorlash uslublari, qo'llaniladigan ishlov berish yig'ish tayyorlash korxonasidan tashqarida montaj qilish va sinashni texnologik usullari va ko'rinishlari, progressiv texnologik jarayonlar, shuningdek kam mehnat va energiya sarflanadigan, chiqindisiz tipaviy texnologik jarayonlardan foydalanganlik darajasi, jarayonlarni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish imkoniyati, unifikatsiyalangan yig'ish birikmalari va detallarni qo'llash darajasi, tayyorlovchi korxonani o'ziga xos xususiyatlari, talab qilingan ishchilar klafikatsiyalari.

Detalning ishchi chizmasini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki detailni ishchi vazifasini o'zgartirmagan holda uni tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoniyati yo'q. Detal tuzilishi xom–shayo olishni ratsional usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlov berishda qiyinchilik tug'diradigan va maqsadga muvofiq bo'lmagan yuzalar aniqlanadi. Zagotovka tuzilishi va mustaxkamligi va uni unumdorligini yuqori bo'lgan ishlov berish usullaridan foydalanishni chegaralanmaydi. Materialni ishlov beriluvchanligi tig'li va obraziv asboblardan foydalanishga imkon beradi. Texnologiklik va aniqlik bo'yicha taxlil texnologik jarayon marshrutini tuzish dastgohlarni nazorat ishlarini aniqlashga negiz bo'lib qoladi.

Detal konstruksiyasini texnologikligi — konstruksiyasini shunday xossalari yig'indisiki bunda bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bir xil sharoitda tayyorlangan va ekspluatatsiya qilinadigan o'xshash konstruksiyasiga ega bo'lgan maxsulotga nisbatan yanada samarador texnologiyalar bilan ishlov berish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Detalni texnologilikka taxlil qilish ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni muxim masalasidir.

Bajarilgan taxlil quyidagi koeffitsentlarni aniqlashga imkon beradi.  
Konstruktiv elementlarni unifikatsiyalanganlik koeffitsenti.

$$K_{y,\text{э}} = \frac{Q_{y,\text{э}}}{Q_{\text{э}}}$$

bu erda:

$Q_{y,\text{э}}$  va  $Q_{\text{э}}$  unifikatsiyalangan konstruktiv elementlar soni va detalni hamma elementlar soni

$$K_{\text{м.э}} = \frac{Q_{y,\text{э}}}{Q_{\text{э}}} = \frac{2}{8} = 0.25$$

Ishlov berish aniqligi koeffitsenti.

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}}$$

bu erda:

$$A_{yp} = \frac{(n_1 + 2n_2 + 3n_3 + \dots + 19n_{19})}{\sum_1^{19} n_i} = \frac{7 \cdot 2 + 9 \cdot 6}{8} = 8.5$$

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}} = 1 - \frac{1}{8.5} = 0.88$$

Bajarilgan taxlil yig'uv birikmaning berilgan detalni to'g'ri loyixalashga imkon beradi

## **2. TEXNOLOGIK QISM**

### **2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash.**

Zagotovkalar toza va xomaki zagotovkalarga bo'linadi. Toza zagotovka deganda tayyorlangandan keyin kesib ishlanmaydigan, o'lchamlari va tozaligi tayyor detal chizmasida ko'rsatilgan o'lcham va tozalikka to'g'ri keladigan zagotovkalar tushuniladi. Xomaki zagotovkalar chizma talablariga muvofiq keladigan o'lcham, aniqlik va tozalikdagi detal hosil qilish maqsadida qo'yim kesib olish uchun mexanik ishlanishi zarur bo'lgan zagotovkalardir.

Mashina detallari uchun zagotovkalar asosan quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

qora va rangli metallardan quyish yo'li bilan;

bosim bilan ishlash (bolg'alah va shtamplash) orqali;

qora va rangli metallar prokatidan;

metallokeramikadan (kukun metallurgiyasi yo'li bilan);

payvandlash – zagotovka qismlarini bir butun qilib ulash yo'li bilan;

metallmas materiallardan (plastik massalar va boshqalardan).

Zagotovka olish usulini tanlash, detalni o'lcham va materiali, ishchi vazifasi, uni tayyorlashga texnik talablar, yillik dastur va umumiy tuzilishi kabi omillar belgilab beradi. Bu masalani xal qilishda zagotovka o'lchami va tuzilishi detalni o'lcham va tuzilishiga maksimal yaqin bo'lishini ta'minlash kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, zagotovka aniqligini oshirish va tuzilishini murakkablashtirish uni tannarxini oshishiga olib keladi. SHuning uchun ham zagotovka olishni optimal usuli zagotovka tannarxi kam bo'lgandagi usulidir.

Zagotovka olishni mavjud usullarini tahlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovkani quyish yo'li bilan olamiz.

## 2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish

2.1-jadval

| Operatsiya № | № O'tishlar | Operatsiya va o'tshmlar nomi va mohiyati. | Kesish dastgohi nomi               | Moslama turi   | Kesuvchi asbob nomi | O'lchov asbobi             |
|--------------|-------------|-------------------------------------------|------------------------------------|----------------|---------------------|----------------------------|
| 1            | 2           | 3                                         | 4                                  | 5              | 6                   | 7                          |
| 005          |             | Vertikal frezalash<br>A o'rnatish         | Vertikal frezalash dastgohi 6H12ΠБ | Tiski          |                     | Shtan gen sirkul (Shs 126) |
|              | 1           | A yuza frezalansin.                       |                                    |                | Torets freza        |                            |
|              |             | B o'rnatish                               |                                    |                | Torets freza        |                            |
|              | 1           | B yuza qora frezalansin.                  |                                    |                | Torets freza        |                            |
|              | 2           | B yuza toza frezalansin                   |                                    |                | Torets freza        |                            |
| 010          |             | Vertikal frezalash<br>A o'rnatish         | Vertikal frezalash dastgohi 6H12ΠБ | Maxsus moslama |                     | Shtan gen sirkul (Shs 126) |
|              | 1           | F1 yuza frezalansin.                      |                                    |                | Barmoq freza        |                            |
|              | 2           | F2 yuza frezalansin.                      |                                    |                | Barmoq freza        |                            |
| 015          |             | Vertikal frezalash<br>A o'rnatish         | Vertikal frezalash dastgohi 6H12ΠБ | Maxsus moslama |                     | Shtan gen sirkul (Shs 126) |
|              | 1           | C1 yuza frezalansin.                      |                                    |                | Barmoq freza        |                            |
|              | 2           | FC yuza frezalansin.                      |                                    |                | Barmoq freza        |                            |
| 020          |             | Vertikal                                  | Vertikal                           | Maxsus         |                     | ShS                        |

|  |   |                                   |                                |         |               |           |
|--|---|-----------------------------------|--------------------------------|---------|---------------|-----------|
|  |   | parmalash                         | parmalash<br>dastgohi<br>2A135 | moslama |               | MS        |
|  | 1 | D yuza parmalab<br>kengaytirilsin |                                |         | Parma Ø20mm   | ShS<br>MS |
|  | 2 | E yuza parmalab<br>kengaytirilsin |                                |         | Parma Ø28.4mm |           |
|  | 3 | E yuza<br>zenkerlansin            |                                |         | Zenker Ø30mm  |           |

### 2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi

1. Diametri Ø30 H7 bo'lgan D yuza uchun qo'yim miqdorini hisoblaymiz. Zagotovka quyma usuli bilan olingan.. F yuza ishlov berish texnologik marshruti parmalash, zenkerlashdan iborat.

Aylanuvchi detallarga ishlov berishda qo'yimlarni aniqlash quyidagi formula yordamida topiladi [7, 37 b.]:

$$2z_{i_{min}} = 2(R_{z_{i-1}} + T_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2}),$$

Zagotovka uchun profilning notekisliklari balandligi  $R$  va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligini  $T$  jadvaldan olamiz:

- 1) zagotovka uchun:  $R=320$  mkm;  $T=320$  mkm [7, 10 b.];
- 2) parmalash uchun:  $R=240$  mkm;  $T=240$  mkm [7, 10 b.];
- 3) zenkerlash uchun:  $R=20$  mkm;  $T=20$  mkm [7, 10 b.];

Dopusklar miqdori:

- zagotovka uchun  $\delta=520$  mkm;
- parmalash uchun  $\delta=130$  mkm;
- zenkerlash uchun  $\delta=35$  mkm;

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yig'indisi quyma zagatovkalarni yo'nish jarayoni quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_{i-1} = \sqrt{\rho_{sm}^2 + \rho_{kor}^2}$$

$$\rho_{sm} = \delta = 520 \text{ mkm}$$

$$\rho_{kor} = \rho_k = \Delta_{kr} l = 4 \cdot 45 = 180 \text{ mkm};$$

$$\Delta_{kr} = 4 \text{ mkm} [7, 16 \text{ b.}]$$

$$\rho_{i-1} = \sqrt{520^2 + 180^2} = 550$$

Qoldiq fazoviy chetlanishlar:

- parmalashdan so'ng:  $\rho_1 = 0,6 \cdot 550 = 330 \text{ mkm}$ ;
- zenkerlashdan so'ng:  $\rho_2 = 0,5 \cdot 550 = 225 \text{ mkm}$

$$\varepsilon_i = \sqrt{\varepsilon_b^2 + \varepsilon_z^2}$$

$$\varepsilon_b = 0;$$

$$\varepsilon_z = 380 \text{ mkm} [4, 23 \text{ b.}]$$

$$\varepsilon_i = \sqrt{0^2 + 380^2} = 380 \text{ mkm}$$

- parmalashdan so'ng:  $\varepsilon_1 = 0,05 \cdot 380 = 19 \text{ mkm}$ ;
- zenkerlashdan so'ng:  $\varepsilon_1 = 0,04 \cdot 380 = 15,2 \text{ mkm}$ ;

Qo'yimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

- parmalash:  $2z_{min_3} = 2(640 + \sqrt{550^2 + 380^2}) = 2620 \text{ mkm}$
- zenkerlash:  $2z_{min_2} = 2(480 + \sqrt{330^2 + 19^2}) = 1620 \text{ mkm}$

Zagotovkaning hisobiy o'lchamlarini aniqlaymiz:

2.2-jadval

| Texnologik<br>ishlov<br>berish | Qo'yim<br>elementlari, mkm |     |     |      | $2z_{min}$ | $d_h$ ,<br>mm | Dopusk<br>$\delta$ , mkm | CHegaraviy<br>o'lcham, mm |           | Qo'yimlar<br>chegarasi,<br>mkm |                 |
|--------------------------------|----------------------------|-----|-----|------|------------|---------------|--------------------------|---------------------------|-----------|--------------------------------|-----------------|
|                                | $R_z$                      | $T$ | $P$ | $E$  |            |               |                          | $d_{min}$                 | $d_{max}$ | $2z_{min}^{ch}$                | $2z_{max}^{ch}$ |
| Zagotovka                      | 320                        | 320 | 550 | 380  |            | 25,8          | 520                      | 25,28                     | 26,32     |                                |                 |
| Parmalash                      | 240                        | 240 | 330 | 19   | 2,6        | 28,4          | 130                      | 28,27                     | 28,53     | 2210                           | 2990            |
| Zenker<br>lash                 | 20                         | 20  | 225 | 15,2 | 1,6        | 30            | 35                       | 29,965                    | 30,035    | 1505                           | 1695            |

Quyimlarning eng katta va eng kichik qiymatlari yig'indisini aniqlaymiz:

$$2Z_{min}^{ch} = 3715 \text{ mkm}; 2Z_{max}^{ch} = 4685 \text{ mkm}.$$

Hisoblar to'g'riligini tekshiramiz.

$$2Z_{max}^{ch} - 2Z_{min}^{ch} = \delta_z - \delta_d$$

$$4685 - 3715 = (520 - 35) \cdot 2$$

$$970 = 485 \cdot 2$$

**Jadval usuli bilan mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo'yim miqdorini hisobi (hamma qolgan yuzalar uchun). ([7], 178 b.)**

2.3-jadval

| Ishlov beriladigan yuza | O'lcham | Qo'yim     |             | Chetlanish, mm |
|-------------------------|---------|------------|-------------|----------------|
|                         |         | Jadval, mm | Hisobiy, mm |                |
| A va B                  | 72 h9   | 2.5        | 5           | +0.2<br>-0.2   |
| D                       | Ø 20 H7 | 2          | 4           |                |

## 2.4. Kesish maromlarini hisoblash

### 005. Vertikal frezalash operatsiyasi.

#### A o'rnatish.

**1-o'tish.** A yuza  $l=80\text{mm}$ ,  $b=50\text{mm}$ ,  $h=2.5\text{mm}$  o'lchamni ushlab frezalansin.

Dastgoh 6H12ПБ vertikal frezalash dastgohi. Ishlov berilayotgan material C45.

Kesuvchi asbob torets freza  $D=125 \text{ mm}$ , GOST 22085-76. Kesuvchi qismi materiali BK6, tishlar soni  $z=12$  ta; Geometrik parametrlari:  $\varphi=60^\circ$ ,  $\varphi_1=5^\circ$ ,  $\varphi_0=20^\circ$ ,  $\lambda=+5^\circ$ ,  $\gamma=-5^\circ$ ,  $\alpha=12^\circ$

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

2.  $t=h=2.5\text{mm}$

2. Surish miqdori

$$S_z = 0.14 - 0.24 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78-j, 86-b)$$

$S_z = 0.15$  qabul qilamiz

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

T –frezani turg'unlik davri, T=180 daq ([3], 2.85-j, 93-b)

$K_v$  - To'g'rilash ko'effitsienti

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{pv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi ko'effitsient;

$$K_{mv} = \left( \frac{190}{HB} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=1$ ; ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{190}{185} \right)^1 = 1.02$$

$K_{pv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi ko'effitsient;

$K_{pv}=0.8$  ([3], 2.5-j, 37-b)

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi ko'effitsient;

$K_{uv} = 1$  ([3], 2.6-j, 37-b)

$$K_v = 1.02 \cdot 0.8 \cdot 1 = 0.82$$

Formuladagi ko'effitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v=445$ ,  $q=0.2$ ,  $x=0.15$ ,  $y=0.35$ ,  $u=0.2$ ,  $r=0$ ,  $m=0.32$  ([3], 2.84-j, 90-b)

$$V = \frac{445 \cdot 125^{0.2}}{180^{0.32} \cdot 2.5^{0.15} \cdot 0.15^{0.35} \cdot 50^{0.2} \cdot 12^0} \cdot 0.82 = 140 \text{ m/daq}$$

4.Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 140}{3.14 \cdot 125} = 357 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n=400$  ayl/daq qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 125 \cdot 400}{1000} = 157 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi



$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,15 \cdot 400 \cdot 12 = 720 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan  $S_M = 800 \text{ mm/daq}$  qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{800}{12 \cdot 400} = 0.16 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$R_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$K_{mp}$ - to'g'rilash koeffitsenti:

$$K_{mp} = \left( \frac{HB}{190} \right)^n \quad n=0.55 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{185}{190} \right)^{0.55} = 0.98$$

$$C_p = 54.5, \quad x=0.9, y=0.74, \quad n=1, \quad q=1, \quad w=0 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 54.5 \cdot 2.5^{0.9} \cdot 0.16^{0.74} \cdot 50^1 \cdot 12}{125^1 \cdot 400^0} \cdot 0.98 = 1561 N$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{1561 \cdot 157}{1020 \cdot 60} = 4 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0.85 = 8.5 \text{ kVt.}$$

$$4 \leq 8.5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 75 \text{ mm},$$

$$u = 0.5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0.5 \left( 125 - \sqrt{125^2 - 50^2} \right) = 5.2 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm. } \Delta = 3 \text{ mm qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{88.1}{800} = 0,11 \text{ daq}$$

## B o'rnatish.

**1-o'tish.** B yuza  $l=140\text{mm}$ ,  $b=60\text{mm}$ ,  $h=1.5\text{mm}$  o'lchamni ushlab qora frezalansin.

Dastgoh 6H12ПБ vertikal frezalash dastgohi. Ishlov berilayotgan material Cч15.

Kesuvchi asbob torets freza  $D=125 \text{ mm}$ , GOST 22085-76. Kesuvchi qismi materiali BK6, tishlar soni  $z=12$  ta; Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

$$1. \quad t=h=1.5\text{mm}$$

2. Surish miqdori

$$S_z=0.14-0.24 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78-j, 86-b)$$

$$S_z=0.15 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

$T$  –frezani turg'unlik davri,  $T=180 \text{ daq}$  ([3], 2.85-j, 93-b)

$K_v$  - To'g'rilash koefitsienti

$$K_v=0.82$$

Formuladagi koefitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v=445, \quad q=0.2, \quad x=0.15, \quad y=0.35, \quad u=0.2, \quad r=0, \quad m=0.32 \quad ([3], 2.84-j, 90-b)$$

$$V = \frac{445 \cdot 125^{0.2}}{180^{0.32} \cdot 1.5^{0.15} \cdot 0.15^{0.35} \cdot 60^{0.2} \cdot 12^0} \cdot 0.82 = 146 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 146}{3.14 \cdot 125} = 373 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n=400$  ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 125 \cdot 400}{1000} = 157 m/daq$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,15 \cdot 400 \cdot 12 = 720 mm/daq$$

Dastgoh pasportidan  $S_M = 800$  mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{800}{12 \cdot 400} = 0.16 mm/daq$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$R_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$K_{mp}$ - to'g'rilash koeffitsienti:

$$K_{mp} = \left( \frac{HB}{190} \right)^n \quad n=0.55 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{185}{190} \right)^{0.55} = 0.98$$

$$C_p = 54.5, \quad x=0.9, y=0.74, \quad n=1, \quad q=1, \quad w=0 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 54.5 \cdot 1.5^{0.9} \cdot 0.16^{0.74} \cdot 60^1 \cdot 12}{125^1 \cdot 400^0} \cdot 0.98 = 1183 N$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{1183 \cdot 125}{1020 \cdot 60} = 3.03 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0.85 = 8.5 \text{ kVt}.$$

$$3.03 \leq 8.5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 140 \text{ mm},$$

$$u = 0.5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0.5 \left( 125 - \sqrt{125^2 - 60^2} \right) = 7.6 \text{ mm}$$

$\Delta=1\dots5$  mm.  $\Delta=3$ mm qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{156.6}{800} = 0,18 \text{ daq}$$

**2-o'tish.** B yuza  $l=140$ mm,  $b=60$ mm,  $h=1$ mm o'lchamni ushlab toza frezalansin.

1.  $t=h=1$  mm

2. Surish miqdori

$$S_z=0.14-0.24 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78\text{-j, } 86\text{-b})$$

$$S_z=0.15 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

T –frezani turg'unlik davri,  $T=180$  daq  $([3], 2.85\text{-j, } 93\text{-b})$

$K_v$  - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v=0.82$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v=445$ ,  $q=0.2$ ,  $x=0.15$ ,  $y=0.35$ ,  $u=0.2$ ,  $r=0$ ,  $m=0.32$   $([3], 2.84\text{-j, } 90\text{-b})$

$$V = \frac{445 \cdot 125^{0,2}}{180^{0,32} \cdot 1^{0,15} \cdot 0,15^{0,35} \cdot 60^{0,2} \cdot 12^0} \cdot 0.82 = 155 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 155}{3.14 \cdot 125} = 396 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n=400$  ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 125 \cdot 400}{1000} = 157 \text{ m/daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,15 \cdot 400 \cdot 12 = 720 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan  $S_M=800$  mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{800}{12 \cdot 400} = 0.16 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$R_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$$K_{mp} 0.98$$

$$C_p = 54.5, \quad x = 0.9, y = 0.74, \quad n = 1, \quad q = 1, \quad w = 0 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 54.5 \cdot 1^{0.9} \cdot 0.16^{0.74} \cdot 60^1 \cdot 12}{125^1 \cdot 400^0} \cdot 0.98 = 821 N$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{821 \cdot 125}{1020 \cdot 60} = 2.1 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0.85 = 8.5 \text{ kVt.}$$

$$2.1 \leq 8.5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 140 \text{ mm,}$$

$$u = 0.5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0.5 \left( 125 - \sqrt{125^2 - 60^2} \right) = 7.6 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm. } \Delta = 3 \text{ mm qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{156.6}{800} = 0.18 \text{ daq}$$

## 010 Vertikal frezalash operatsiyasi.

**1-o'tish.** F1 yuza  $l = 22 \text{ mm}$ ,  $b = 15 \text{ mm}$ ,  $\text{mm}$  o'lchamni ushlab qora frezalansin.

Kesuvchi asbob disk freza  $D = 14 \text{ mm}$ , GOST 9473-74. Kesuvchi qismi material BK6, tishlar soni  $z = 4$  ta; Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

2.  $t=7$  mm

2. Surish miqdori

$$S_z = 0.14 - 0.24 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78\text{-j}, 86\text{-b})$$

$$S_z = 0.15 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

$T$  – frezani turg'unlik davri,  $T=80$  daq  $([3], 2.85\text{-j}, 93\text{-b})$

$K_v$  - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 0.82$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v=72, q=0.7, x=0.5, y=0.2, u=0.3, r=0.3, m=0.25 \quad ([3], 2.84\text{-j}, 90\text{-b})$$

$$V = \frac{72 \cdot 14^{0.7}}{80^{0.25} \cdot 7^{0.5} \cdot 0.15^{0.2} \cdot 15^{0.3} \cdot 4^{0.3}} \cdot 0.82 = 20 \text{ m/daq}$$

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 20}{3.14 \cdot 14} = 460 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n=500$  ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 14 \cdot 500}{1000} = 27 \text{ m / daq}$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.15 \cdot 500 \cdot 4 = 378 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan  $S_M=400$  mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{400}{4 \cdot 500} = 0.15 \text{ mm/daq}$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$R_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$

$$K_{mp}=0.98$$

$$C_p=30, \quad x=0.83, y=0.65, \quad n=1, \quad q=0.83, \quad w=0 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 30 \cdot 7^{0.83} \cdot 0.15^{0.65} \cdot 15^1 \cdot 4}{14^1 \cdot 500^0} \cdot 0.98 = 3016 N$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{3016 \cdot 27}{1020 \cdot 60} = 1.4 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0.85 = 8.5 \text{ kVt}.$$

$$2.45 \leq 8.5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 22 \text{ mm},$$

$$u = 0.5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0.5 \left( 14 - \sqrt{14^2 - 14^2} \right) = 7 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}. \Delta = 3 \text{ mm} \text{ qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{32}{400} = 0.08 \text{ daq}$$

**2-o'tish** qiymatlari 1- o'tish qiymatlariga teng deb olinsin.

**015 Vertikal frezalash operatsiyasi.**

**1-o'tish.** C1 yuza  $l=15 \text{ mm}$ ,  $b=15 \text{ mm}$ ,  $\text{mm}$  o'lchamni ushlab frezalansin.

Kesuvchi asbob disk freza  $D=11 \text{ mm}$ , GOST 9473-74. Kesuvchi qismi material BK6, tishlar soni  $z=4$  ta; Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

$$3. \quad t = 5.5 \text{ mm}$$

## 2. Surish miqdori

$$S_z = 0.14 - 0.24 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.78\text{-j, } 86\text{-b})$$

$$S_z = 0.15 \text{ qabul qilamiz}$$

## 3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v;$$

$$T \text{ – frezani turg'unlik davri, } T = 80 \text{ daq} \quad ([3], 2.85\text{-j, } 93\text{-b})$$

$K_v$  - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = 0.82$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v = 72, q = 0.7, x = 0.5, y = 0.2, u = 0.3, r = 0.3, m = 0.25 \quad ([3], 2.84\text{-j, } 90\text{-b})$$

$$V = \frac{72 \cdot 11^{0.7}}{80^{0.25} \cdot 5.5^{0.5} \cdot 0.15^{0.2} \cdot 15^{0.3} \cdot 4^{0.3}} \cdot 0.82 = 19 \text{ m/daq}$$

## 4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 19}{3.14 \cdot 11} = 558 \text{ min}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n = 630$  ayl/daq qabul qilamiz.

## 5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 11 \cdot 630}{1000} = 21 \text{ m / daq}$$

## 6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.15 \cdot 630 \cdot 4 = 378 \text{ mm/daq}$$

Dastgoh pasportidan  $S_M = 400 \text{ mm/daq}$  qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{400}{4 \cdot 630} = 0.15 \text{ mm/daq}$$

## 7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$R_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp};$$



$$K_{mp}=0.98$$

$$C_p=30, \quad x=0.83, y=0.65, \quad n=1, \quad q=0.83, \quad w=0 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

$$P_z = \frac{10 \cdot 30 \cdot 5.5^{0.83} \cdot 0.15^{0.65} \cdot 15^1 \cdot 4}{11^1 \cdot 630^0} \cdot 0.98 = 3016 N$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} = \frac{3016 \cdot 21}{1020 \cdot 60} = 1 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 10 \cdot 0.85 = 8.5 \text{ kVt}.$$

$$1 \leq 8.5$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta$$

$$l = 15 \text{ mm},$$

$$u = 0.5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0.5 \left( 11 - \sqrt{11^2 - 11^2} \right) = 7 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm}. \Delta = 3 \text{ mm} \text{ qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{L}{S_M} = \frac{23.5}{400} = 0.06 \text{ daq}$$

**2-o'tish** qiymatlari 1- o'tish qiymatlariga teng deb olinsin.

## 020. Vertikal parmash operatsiyasi

**1-o'tish.** D teshik  $\varnothing 20$  mm l=42 mm masofani ushlab parmashin.

Dastgoh: Vertikal parmash dastgohi 2A135.

Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma D=20 mm, kesuvchi qism materiali BK8. Geometrik o'lchamlari

$$2\varphi = 118^\circ; 2\varphi_0 = 70^\circ; \psi = 30^\circ; \alpha = 11^\circ \quad ([4] 203 \text{ bet, } 44 \text{ jad})$$

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D - d / 2 = 20 - 16 / 2 = 2 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0.41 - 0.47 \text{ mm/min. } ([3], 2.38-j, 62-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o = 0.43 \text{ mm/min}$  ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T = 45 \text{ daqiqa qabul qilamiz. } ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v = 34.2, q = 0.45, y = 0.30, m = 0.20 \quad ([3], 2.41-j, 64-b)$$

To'g'rilash koeffitsientini topamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = \left( \frac{190}{HB} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$$n_v = 1; \quad ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{190}{185} \right)^1 = 1.02$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 0.8 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$K_{lv}$ - Teshik uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv} = 1 \quad ([3], 2.44-j, 67-b)$$

$$K_v = 1.02 \cdot 0.8 \cdot 1 = 0.8$$

$$V = \frac{34.2 \cdot 320^{0.45}}{45^{0.2} \cdot 0.43^{0.3}} \cdot 0.8 = 63 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 63}{3.14 \cdot 20} = 1009 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1100$  ayl/daq qabul qilamiz.

6.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 1100 \cdot 20}{1000} = 69 \text{ m / daq}$$

7.Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m = 0.012; q=2.2; y=0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left( \frac{HB}{190} \right)^n \quad n=0.55 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{185}{190} \right)^{0.55} = 0.82$$

U xolda:

$$M_{kr} = 10 \cdot 0.012 \cdot 20^{2.2} \cdot 0.43^{0.8} \cdot 0.82 = 36 \text{ N} \cdot \text{m}$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblaymiz:

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p = 42; q=1.0; y=0.75; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

U xolda :

$$P_0 = 10 \cdot 42 \cdot 20^{1.0} \cdot 0.43^{0.75} \cdot 0.82 = 3657 \text{ N}$$

9.Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{36 \cdot 1100}{9750} = 4.1 \text{ kvv};$$

10.Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{44}{1100 \cdot 0.43} = 0.09 \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 42 + 1 + 1 = 44 \text{ mm};$$

bu yerda:  $y=1$  mm, parmani botishi

$\Delta=1$  mm, parmani chiqishi,  $l=42$ mm, teshik uzunligi.

**2-o'tish.** E teshik  $\varnothing 28.4$ mm  $l=30$  mm masofani ushlab parmalansin.

Dastgoh: Vertikal parmalash dastgohi 2A135.

Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma  $D=28.4$  mm, kesuvchi qism materiali BK8. Geometrik o'lchamlari

$2\varphi=118^0$ ;  $2\varphi_0=70^0$ ;  $\psi=30^0$ ;  $\alpha=11^0$  ([4] 203 bet, 44 jad )

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t=D-d/2=28.4-25.8/2=1.3 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.41-0.47\text{mm/min.} \quad ([3], 2.38-j, 62-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o=0.43$  mm/min ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T=45 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koefitsientlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v=34.2, q=0.45, y=0.30, m=0.20 \quad ([3], 2.41-j, 64-b)$$

To'g'rilash koefitsientini topamiz.

$$K_v=K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koefitsient;

$$K_{mv} = \left( \frac{190}{HB} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$$n_v=1; \quad ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{190}{185} \right)^1 = 1.02$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koefitsient;

$$K_{uv} = 0.8 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$K_{lv}$ - Teshik uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv}=1 \quad ([3], 2.44-j, 67-b)$$

$$K_v=1.02 \cdot 0.8 \cdot 1=0.8$$

$$V = \frac{34.2 \cdot 28.4^{0.45}}{45^{0.2} \cdot 0.43^{0.3}} \cdot 0.8 = 74 \text{ m / daq}$$

5.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 74}{3.14 \cdot 28.4} = 832 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=750$  ayl/daq qabul qilamiz.

6.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 750 \cdot 28.4}{1000} = 66 \text{ m / daq}$$

7.Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m=0.012; q=2.2; y=0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p=K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left( \frac{HB}{190} \right)^n \quad n=0.55 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{185}{190} \right)^{0.55} = 0.82$$

U xolda:

$$M_{kr}=10 \cdot 0.012 \cdot 28.4^{2.2} \cdot 0.43^{0.8} \cdot 0.82 = 78 \text{ N} \cdot \text{m}$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblaymiz:

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p=42; q=1.0; y=0.75; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

U xolda :

$$P_0=10 \cdot 42 \cdot 28.4^{1.0} \cdot 0.43^{0.75} \cdot 0.82 = 5193 \text{ N}$$

9.Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{78 \cdot 750}{9750} = 6 \text{ kvv};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{32}{750 \cdot 0,43} = 0,1 \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 30 + 1 + 1 = 32 \text{ mm};$$

